



O‘ZBEK OILALARIDA KITOBXONLIKNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Bazarov Shavkat

Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi ARM bosh mutaxassisi

“Bugungi murakkab va tahlikali dunyoda yoshlar tarbiyasi biz uchun eng muhim va dolzarb vazifa bo‘lib qolayotganini ota-ona, ustoz-murabbiy sifatida hammamiz yaxshi tushunamiz.

Shuning uchun ham yoshlarimizning qonuniy huquq va manfaatlarini ta’minlash, ta’lim-tarbiya masalasida xato qilishga hech qanday haqqimiz yo‘q. Bu masalada xato qilsak, bolalarimiz, farzandlarimizda, Vatanimizga xiyonat qilgan bo‘lamiz”

Shavkat Mirziyoev

Annotatsiya: Mazkur maqolada oilada bolalarni kitobga qiziqtirish, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va bu borada ota-onalarning o‘rni haqidagi fikrlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Mutolaa, kitobxon, kutubxona, oila, ota-ona, tarbiya, bola, o‘smir, maktab, ko‘nikma.

Jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an‘analarni chuqur qaror toptirishda, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy-intellektual salohiyati, ong-u tavakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan omillar bir qancha bo‘lib, shulardan eng muhimi-bu kitobxonlik, yoshlarda mutolaa madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishdir!

Kelajagimiz egalari hisoblanmish yosh avlodni ma’navny shakllantirishda kitobxonlikning o‘rni o‘ziga xos. Kitobning inson hayoti, kishilik jamiyati ma’naviy taraqqiyotidagi beqiyos o‘rni qadimdan ma’lum. U dunyoni tanish, bilim berish bilan birga go‘zallikka muhabbat uyg‘otish, undan, zavqlanish, yovuzlikdan nafratlanish tuyg‘usini paydo qiladi. Bolalar kitobxonligini tashkil qilishda maktab hamda ota-onalar zimmasiga nihoyatda murakkab ma’suliyatli vazifa yuklanadi. Buning uchun ota-onalarning o‘zi ham yuksak didga ega bo‘lishlari kerak. Kitob mutolaasiga havasi bolalikdan paydo bo‘lmagan o‘quvchi keyinchalik berilgan katta hajimli asarlarni o‘qishga kuch topolmaydi, ishtiyoq



sezmaydi, hohish bildirmaydi, faqat darslikda berilgan qisqartirilgan parcha bilangina tanishadi va yozuvchining butun asar mazmuniga singdirib yuborgan pafosini, g‘oyaviy-badiiy maqsadini to‘la anglolmaydi, badiiy asarlar uyg‘otadigan chinakam zavqidan bebahra qoladi, adabiyotning haqiqiy kuchini, qudratini his qilmaydi, natijada kitob o‘qishga mehr qo‘ymaydi.

Xususan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida” PQ-3271-sonli qarori hamda Vazirlar mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi “2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 781-son qarori bilan nafaqat mutolaa madaniyatini shakllantirish masalasi, balki kitobxon uchun zarur bo‘lgan adabiyotlar ta‘minoti bilan bog‘liq barcha masalalarning huquqiy echimi topilib, sohani rivojlantirish bo‘yicha vazifalar aniq ko‘rsatib berildi. Kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir targ‘ibot ishlarini tizimli va samarali tashkil etish maqsadida, o‘zbek oilalarida kitobxonlik madaniyatini takomillashtirining zaruriyati tug‘ilmoqda. Ma‘lumki, bola kitob o‘qishni bilgan taqdirdagina, kitob uning ma‘naviy, hayotida muhim rol o‘ynaydi. Buning uchun kitob bolaning ma‘naviy boyishi uchun uni ma‘naviy, aqliy, estetik o‘rishga yo‘llashi zarur. Buning uchun daslabki turtki oilada bolaga o‘qib berilgan birinchi kitob bo‘lsa, ikkinchisi bola otasi va onasining o‘qishini eshitib, badiiy obrazlar go‘zalligini his etishidir. Ana shu birinchi va ikkinchi uchrashuv bolaning keyingi, o‘smirlik davrida uning ma‘naviy hayotining barcha sohalari: mehnat, o‘yin, musiqa, bolalar ijodi bilan bo‘g‘liq bo‘lib, uni hayotning hamma tomonlarini qamrab olishi zarur.

Chunki, o‘smir hayotini ijodiy mehnat, ertaklar olami, fantaziyalar, o‘yin va musiqasiz tasavvur etish qiyin. Bularning barchasini kitobxonlik ham qamrab olsa, ana shunda uning hayoti mazmunsiz, ma‘naviy qashshoq emas, balki voqea hodisalarning tub mohiyatini anglab olishga harakat qiladigan, turmush ziddiyatlarini tushunadigan barkamol shaxs bo‘lib etishishiga yordam beradi. Haqiqatdan ham kitobxonlik insonni barkamollikka yo‘llasa, uni o‘qimaslik johillikka, ma‘rifatsizlikka olib kelib, natijada ma‘naviy



qashshoqlikni keltirib chiqaradi. Chunki bugungi kunda davlatimizning jahon hamjamiyatida o'z o'rniga ega bo'lishi, O'zbekistonning jahonda eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun xuddi shu mamlakatda yashaydigan yoshlar barkamol aql egalari, yuksak madaniy saviya va ma'naviyatga ega bo'lishlari zarur. Ana shunday aql zakovatni shakllantiruvchi inson ma'naviy dunyosini boyituvchi vosita-bu kitob, kitobxonlikdir. Buning uchun maktabda, oiladagi muhim vazifa-kitobxonlikni inson hayotida zaruriyatga aylaitirishdan iborat. Agar kitobxoilik zaruriyatga aylanmasa, oilada, ham maktabda ham unga mehr-muhabbat e'tibor kuchaytirilmasa farzandni kitobga bo'lgan munosabatini o'zgartirish mumkin emas. Oila kitobxonligi bu-oila a'zolarinihg aql-zakovati va yuksak ma'naviyatini shakllantiruvchi, inson ma'naviy dunyosini boyituvchi, kitobga mehr-muhabbat hamda uni zaruriyatga aylantiruvchi ma'lum tizimidir. Bu tizim o'smirlarning aqliy, ma'naviy, axloqiy, estetik rivojlanishi tizimidan iborat bo'lib, o'zbek oilalarining kitobxonlikka doir boy an'anasi va hozirgi davrda to'plangan boy tajribasiga asoslanadi.

Ma'lumki, kitobxonni avvalo kitobda tasvirlangan voqealar qiziqtiradi. Asta-sekin bu qiziqish uning hissiyotiga ta'sir etib, tasvirlangan voqelik bilan hayot voqeligini taqqoslay boshlaydi, tasvirlardagi go'zallikni anglay boshlaydi, qahramonlarning xarakteri haqida o'ylay boshlaydi, muallifning maqsadi bilan qiziqadi.

Bugungi kunda o'smirlarda kitob o'qish ko'nikmasini hosil qilish uchun asosiy maqsad-targibotning yangicha turli usullari asosida madaniy-tarixiy, manaviy-axloqiy merosni targ'ib qilish, o'tgan buyuk mutafakkirlar ijodlarini keng yoyish, ota-bobolarimiz, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan boy madaniy va ma'naviy merosga sadoqatni tarbiyalash, muqaddas qadryatlarimizni saqlash asrab avaylashdek tuyg'ularni uyg'otish kabi targ'ibotni keng yo'lga qo'yishimiz kerak.

Ota-onalar bolalarga kitob tanlashda, ayniqsa o'smirlar yoshi, psixologiyasi, qiziqishi, didini hisobga olishi yoki zarurat paydo bo'lganda mutaxassislar bilan maslahatlashishi kerak. Shu bilan birga har bir badiiy yuksak asarning tarbiyaviy jihatlariga ham e'tibor berish zarur.

Olimlarning fikricha bir odam butun umri bo'yi 2000 ta kitob o'qiy olish imkoniyatiga



ega ekan. Shuning uchun o‘smirlik yillarida bola o‘qigan kitob unda bir umrga iz qoldirishi muhim. O‘smir endi bolalik davridan o‘tgan. U o‘qigan kitobidan mamnun bo‘lib, zavq bilan o‘qishi zarur. U endi kitobni yozuvchining badiiy mahoratiga qoyil qolib, so‘zning hissiy bo‘yog‘idan ta’sirlanib, uni idrok qilib o‘qishga o‘tadi. Shunday ekan, u o‘ziga yoqib qolgan kitoblar bilan oilasining shaxsiy kutubxonasini boyita boradi yoki o‘zi shaxsiy kutubxona tashkil etish tashabbuskori bo‘ladi.

Oilada bolaning kitobga qiziqishini oshirishda ota-ona namuna bo‘lib farzandlari bilan birga kitoblar mutola qilishi, bolalar shoirlarining she’rlaridan parcha yoddan aytib berishi, ertaklar o‘qib yoki gapirib berishlari hamda ular bilan savol-javoblar o‘tkazishi lozim.

O‘qib bo‘lgan kitoblarini yirtmaslikka undashi, javonlardan ular uchun maxsus joylar ajratib kitoblar to‘plami yaratish muhimligi tushuntiriladi. Bolaning yoshiga va qiziqishiga qarab kitoblar o‘qish tavsiya etiladi. Farzand ulg‘aygan sari unga “O‘zbek xalq ertaklari”, Xudoyberdi To‘xtaboevning “Sariq devni minib”, “Besh bolali yigitcha”, Chingiz Aytmatovning “Oq kema”, “Asrga tatigulik kun”, “Qiyomat” asarlari, O‘tkir Hoshimovning “Ikki yeshik orasi”, “Dunyoning ishlari”, Said Ahmadning “Ufq”, Tohir Malikning “Shaytanat”, Nosir Fozilovning “Qorxat”, “Saraton”, Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, Cho‘lponning “Kecha va kunduz”, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar”, “Avlodlar dovoni”, Abdulla Qahhorning “Sinchalak”, Oybekning “Navoiy”, Odil Yoqubovning “Diyonat”, Shukrulloning “Kafansiz ko‘milganlar”, Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar”, Cho‘lpon, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Uyg‘un, Mirtemir, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Shukrullo, Zulfiya, Saida Zunnunova, Halima Xudoyberdieva, Muhammad Yusuf, Anvar Obidjonlarning she’riy to‘plamlarini o‘qitish bilan bitga faqat o‘zbek adabiyotigina emas, qardosh va chet el adabiyoti namunalaridan ham tavsiya etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Sh.Pero Orinyanning “Qizil shapkacha”, aka-uka Grimmlar, Mark Tven, Xans Xristian Andersen, Janni Rodari, Joiatan Svift, Rasul Hamzatov, Nodar Dumbadze, Chingiz Aytmatov, A.S.Pushkin asarlari, K.D.Ushinskiy, L.N.Tolstoy, S.Marshakning hikoyalari doimo bolalar uchun qiziqarli hisoblanadi va ular ushbu asarlarni o‘qiyotganda qahromonlarni o‘zida gavdalantiradi. Bu esa tarbiyasiga, dunyoqarashiga ta’sir etadi.



Hozirgi davrda televizor, mobile aloqalar, internet ommalashgan bir vaqtda qisman kitob oqishni siqib chiqarayotir, degan etirozlar ham paydo bo‘lmoqda. Lekin shuni aytish joizki yuqorida keltirilgan asarlarni bola o‘qigandan keyin yoki televizorda shu asar bo‘yicha ishlangan kino yoki multfilmni tomosha qilsa biror ko‘rsatuvni ko‘rish uchun har bir inson tayyorlanadi, o‘ziga qulay sharoit yaratadi. Teledasturlar qaysi ko‘rsatuvni qachon ko‘rishga o‘rgatadi Agar kitob o‘qish uchun ham ota-onalar ana shunday sharoit yaratsa, televizor, mobile aloqalar, internetdan ko‘rish va tanlab kitob o‘qishni, qiziqib o‘qishni o‘rgatsa, ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin.

Kitobxonlikda eng muhimi oilada kitobga mehr uyg‘otish, uni avaylab-asrashni tarkib toptirishdir. Faqat allomalargina emas, ko‘plab oddiy insonlar, ham kitobni asrab-avaylaydilar.

Biz 100 ta oilani farzandlariga yatatib bergan shart-sharoitini, farzandlar qiziqishini ularni kitobga bo‘lgan mehrini oshirishda qanday kitoblar olib berganligi, farzandlaridan qaysi kitob juda yoqqani bo‘yicha so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma 1-2-sinfda o‘qiydigan bolalar asosan rasmlı kitoblarni va ertak kitoblarni, 3-5-sinfgacha bo‘lgan bolalar ota-onasi sotib olib kelgan, 6-7-sinf o‘quvchilari esa maktab kutubxonasiga obuna bo‘lib kitoblarni o‘qigani, 8-9-sinf o‘quvchilari esa juda kam kitob sotib olishi hamda internetdan asarlar o‘qishini, 10-11-sinfdagi o‘quvchilar ko‘proq tanlayotgan sohasiga oid va aydio kitoblarni tinglashini aytishdi.

Xulosa qilib aytganda, barcha ezgu ishlarning, bunyodkor g‘oyalarning asosi bu kitobdir. Kitob eng yaqin do‘stlardan biridir. Biz savollarga kitoblar orqali javoblar topamiz, kitoblar fikrlash uchun eng muhim ozuqadir. Bizga ilm nurlarini sochadigan ham kitobdir. Shuning uchun ham biz bugungi kunda kitobga bo‘lgan qiziqishni oiladan boshlasak va bu uchun ularni yoshiga mos kutubxonalarni shakllantirsak, oilada bolada o‘qish malakalarni shakllantirish negizida og‘zaki nutq rivojlantirish va kitobga muhabbatni oshirish kerak deb hisoblaymiz. Biz buyuk ishlarga qodir yoshlarimizni hayot yo‘llarida hamroh va maslahatgo‘y, bir umrlik sodiq do‘st, kitobga tayanishni oiladan boshlasak, kelajagi buyuk yurtimiz uchun munosib bunyodkor yoshlarni tarbiyalab voyaga etkazishda o‘z hissamizni qo‘shgan bo‘lardik.



Foydanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida” PQ-3271-sonli qarori.
2. 2020-yil 14-dekabrdagi “2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 781-son qarori.
3. G‘aniyeva D.A, Ratner R.I. “Ta’lim tizimidagi axborot-kutubxona jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish”.-T., Yangi asr avlodi, 2013.
4. G‘aniyeva D.A.“Ta’lim maqsadlarini amalga oshirishda axborot-resurs markazlarining roli” - T.:Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.

